Xorazm viloyatida sayyor qabul

2026 27 Mart

Urganchda Uzbekistan Airways aviakompaniyasining shahar aholisi, agentlik hamjamiyati va OAV vakillari bilan ochiq muloqot shaklida uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Tadbir davomida ishtirokchilar yo‘nalish tarmog‘i, tarif siyosati, agentlik hamkorligi va mintaqa havo qatnovlarini rivojlantirish istiqbollarining asosiy masalalarini muhokama qildilar.





Aviakompaniya vakillari Urganchga amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan yo‘nalishlar haqida batafsil ma’lumot berishdi. Muloqot chog‘ida jadvalni optimallashtirish bo‘yicha takliflar, jumladan, Silk Avia aviaqatnovlarini qayta taqsimlash orqali kechki vaqtda Uzbekistan Airways aviaqatnovlarini sonini ko‘paytirish masalasi muhokama qilindi.


UZBEKISTAN
AIRWAYS
YADGAROV
Shuxrattillo Shavkatovich


UZBEKISTAN
AIRWAYS



Uchrashuvda Urganchdagi yangi xalqaro aeroport ishga tushirilgach, aviaqatnovlarni yanada rivojlantirish istiqbollari ham qayd etib o‘tildi. Ishtirokchilar 2026-yilgacha rivojlanish rejalarini hisobga olgan holda yangi yo‘nalishlarni ochish imkoniyatlari va yo‘nalishlarning rentabelligini muhokama qildilar.


UZBEKISTAN
AIRWAYS



Uchrashuvning ochiq shakli ishtirokchilarga o‘zlarini qiziqtirgan savollarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri berish va Uzbekistan Airways vakillaridan bu savollarga javoblarni olish imkonini berdi, bu esa aviakompaniyaning shaffof muloqot va mintaqada aviatsiya sohasini birgalikda rivojlantirishga intilishini yana bir bor tasdiqladi.


UZBEKISTAN
AIRWAYS


UZBEKISTAN
AIRWAYS
BRAZIL
PERU
BOLIVIA
ARGENTINA